Biz o‘z iste’dodli, fidoyi bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho‘qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak.

Islom KARIMOV

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong YULDUZI

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2008-yil 5-may N:19 (66664)

O‘TGAN HAFTA SHUKUHI

2008-yilning 28-aprel – 4-may kunlari go‘zal poytaxtimiz Toshkentda 42-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasi bo‘lib o‘tdi

–Men shunday katta olimpiada musobaqalarining Toshkentda o‘tkazilganidan xursandman. G‘oliblarning suratlarini chizishni dilimga tugdim, – deydi Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi Bo‘ston qishlog‘ida yashovchi bo‘lajak rassom Muhriddin To‘xtarboyev.

(U haqdagi maqolani keyingi sonlarda o‘qiysiz).

Toshkentning 2200 yilligiga

Toshkent qadimdan to'rt dahaga bo'lingan:

1. Ko'kcha
2. Sebzor
3. Shayxontohur
4. Beshyog'och

Dahalarga darvozalar orqali kirilgan. Ularning soni 12 ta edi:

1. Qashg'ar
2. Labzak
3. Beshyog'och
4. Komolon
5. Samarqand
6. Ko'kcha
7. Chig'atoy
8. Sag'bon
9. Qorasaroy
10. Taxtapul
11. Qo'qon
12. Quyma

IQTIDORLI BOLALAR IXTIROSI

Aziz bolajonlar! Siz gazetamizning 18-sonida chop etilgan «Ixtirochi bolalar» maqolasini mutolaa qilgan bo'lsangiz kerak. Unda «Ijodkor ixtirochi» Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazilishi haqidagi xabarga ko'zingiz tushgan. Respublikamizning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent Davlat texnika universitetida ana shu tanlovning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Bu tanlov «Intellektual mulkni himoya qilish» kuniga bag'ishlandi. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va o'n ikki viloyatdan maktab o'quvchilari ishtirok etdilar. Tanlovda elektronika yo'nalishi bo'yicha xorazmlik Farhod Tursunboyev; kimyo, neft va gaz sanoati yo'nalishida samarqandlik Bahrom Qudratillayev; sanoat va agrosanoat yo'nalishida samarqandlik Dilshoda Suyunova; transport va harbiy texnika bo'yicha samarqandlik Doston Yo'ldoshev; tabiatni muhofaza etish yo'nalishi bo'yicha Jahonbek Sadinov g'oliblikni qo'lga kiritdilar. Tanlov davomida o'quvchilar o'zlari tayyorlab kelgan harakatli modellarini hakamlar hay'ati oldida himoya qildilar. Hakamlar o'quvchilarning eksponatlarni tayyorlash savodxonligiga, ishning sifati, qo'llanish darajasi, texnik ko'rinishi va dizayniga, ishdagi yangiligiga, g'oyaning zamon talabiga mosligiga hamda taqdim etilayotgan ishlarga qo'yiladigan texnik talablarga, himoya qilish vaqtida fikrning asosli bayon etish mahoratiga alohida e'tibor berdilar. Ixtirochi yoshlarimiz va ular yaratgan yangi ixtirolarning ba'zilari bilan tanishing.

«LUNAXOD»

Bu qanday qurilma ekan, deb qiziqayotgandirsiz-a? Balki bu nomni qayerdadir eshitgandirsiz. Eslay olmayapsizmi? Mayli, qo'yavering. Bu haqda tengdoshingiz, 8- sinf o'quvchisi Sevdiyor Nurmanov shunday deydi: «LUNAXOD» – bu asbobni qishloq xo'jaligida ma'lum qismini almashtirib, turli vazifalarda foydalanishimiz mumkin.

FILTRLI ZAVOD

Men Ibrohim Rahmonov Toshkent shahri, Bektemir tumanidagi 292-maktabning 9-sinf o'quvchisiman. Meni maketim Bektemir qo'rg'onida joylashgan Xitoy qo'shma korxonasi tomonidan 2003-yil ochilgan «Kraxmal zavodi».

Men maketimga «filtr» deb nom qo'ydim. Filtr zavoddan chiqayotgan zararli tutunlarni yutib oladi va quvur orqali toza havo ishlab chiqarib beradi. Bu filtrni yaqin kelajakda o'rnatish niyatim bor.

«ELEKTRON QO'RIQCHI»

Bu nima ekan-a, deb qiziqyapsizmi? Qiziqarlisi shundaki, bu kashfiyotchi bola endigina 5-sinf o'quvchisi Jahongir Umarqulov. Uning fikricha, bu qurilmani yasashga ustozining yordami bilan erishgan. U bir dona ovoz kuchaytirgich va bir dona ovoz kamaytirgich va bir dona eshikka o'rnatilgan qulfga egizak bo'lgan ilgak yordamida tayyorlanadi. Agar o'g'ri eshikka moslab kalit yasab kirmoqchi bo'lsa, u o'z-o'zidan chinqirib yuboradi. Uy egasi shundan sezish mumkinki, uyga o'g'ri tushgan.

Aziz o'quvchilar! Siz ham o'zingizda yangi bir ixtirolar yaratishga moyillik va qiziqishlar borligini sezsangiz, uni albatta ustozlaringiz yordamida ro'yobga chiqaring. Bu esa turmush tarzimizdagi turli muammolarni bartaraf etishda ulkan xizmat qiladi.

Nafisa RUSTAMOVA,
Shahrizoda G'ULOMJONOVA

OTAMNI SOG'INAMIZ

Otam haqida o'ylasam, avvalo, ming shukrlar bo'lsinki, tabarruk bir zotning farzandi ekanligimdan dilimda faxr tuyg'usini his qilaman. Otam o'g'il-qizlari hamda yurt-ning baxt-u iqboli haqida doim kuyunib yurardilar. Bizga bo'lgan mehrlari boshqacha edi.

U kishi juda yaxshi pazanda ham edilar. Onamning aytishlaricha, men tug'ilgan kun otam rosa quvongan ekanlar. Osmondek beg'ubor bo'lsin, deb ismimni Feruza qo'yishgan. Otam do'stlari, kursdoshlari Tursunoy Sodiqova, Dilbar opa, Xosiyat opalargacha quchoq ochib peshvoz chiqardilar. Bugun otam hayot bo'lganlarida, yetmish yoshni qarshi olgan bo'lardilar. Afsuski, umr o'tkinchi ekan...

E'zoz

Feruza SAFAR qizi

Safar BARNOYEV

QIZIM FERUZAGA

Feruza quyosh bilan tongda turar jilmayib,
Feruza quyosh bilan tongda kular jilmayib.
Feruza kulsa agar, olam yayrab ketadi,
Feruza kulsa agar, qushlar sayrab ketadi.
Feruza kulgusidan har uyga kelar sevinch,
Feruza kulsa agar demak, olam bo'lar tinch.
Feruza kulsa agar ko'chada nur o'ynaydi,
Feruza kulgusiga quyosh boqib to'ymaydi.
U shundayin shirin qiz-u shundayin chaqqon qiz,
Mahalla-ko'yda emas, u hammaga yoqqan qiz.
Bog'chasiga boradi qadam tashlab ohista,
Hatto unga havas-la, ergashadi Shohista.
Feruza qiz hammaga salom berib o'tadi,
Qo'lidagi o'yinchog'in o'rtog'iga tutadi.
Hamma uni maqtaydi, hamma uni maqtaydi,
«Koshkiydi Feruzadek mening qizim bo'lsaydi».
Feruza bog'chada ham, yo'lda, mahallada ham,
Hammaning olqishini olib yuradi har dam.
Keksalar der ko'rganda: «Shunday qizcha bor bo'lsin»,
Bog'cha opasi deydi: «Doim baxtiyor bo'lsin».
Uni hamma erkalaydi, erkalaydi kichik-da,
«Shirintoy» deb konfet bersang, yeb qo'yadi kechikmay...

9-May – Xotira va Qadrlash kuni

DIYDOR

(Voqeiy hikoya)



1952-yilning erta bahori. Matyoqub ota kelinini yoniga chaqirib, ming bir istihola bilan gap boshladi:

– Qizim, mana, urush tugaganiga ham yetti yildan oshdi. Lekin o'g'lim Matkarimdan hamon darak yo'q. Shuncha yil xizmatimizni beminnat qilding. Endi guldek yosh umring xazon bo'lmasin, sen ham oila qurgin, – deya keliniga oq fotiha bergandi...

Qishning qirovli kunlaridan birida eshik taqillab qoldi. Eshikni ochgan Matyoqub ota hayratdan lol qoldi: ne ko'z bilan ko'rsinki, qarshisida hamma «o'ldi»ga chiqargan o'g'li Matkarim turibdida. Turmush o'rtog'ini so'ragan farzandiga onaizor bo'lgan voqeani zor-zor yig'lab, so'zlab bergandi o'shanda.

Oradan yillar o'tdi. Matkarim aka ham qayta oila qurib, bolachaqali bo'lib ketdi.

Yaqinda otaxon umrining 90 bahorini qarshi oldi. Uni qutlagani farzandlar-u nabiralari yig'ilishdi. Poytaxtda yashaydigan qizi Gulbahor Oltinoy ismli bir dugonasini ham boshlab keldi. Qizining dugonasi bilan ko'rishayotgan otaxonning yuragi allanechuk dukillab urib ketgandek bo'ldi...

To'kin dasturxon atrofida chaqchaqlashib o'tirishdi. Suhbat davomida mehmonning ham asli xorazmlik ekanligi, urushda shahid ketgan otasining qarindoshlarini izlab yurgani, onasidan esa birgina surat yodgorlik bo'lib qolgani ma'lum bo'ldi. Haligi surat qo'lma-qo'l o'tib, Matkarim otaning qo'liga yetib keldi. Taqdirning o'yinini qarangki, suratdagi ayol otaning birinchi rafiqasi bo'lib chiqdi. Oltinoy bilan ko'rishayotganda, yuragi bejiz bezovta bo'lib ketmaganini otaxon shundagina fahmladi.

Ota-bola ko'zlarida yosh bilan diydorlashishdi.

Fazilat RAHMATULLAYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi 45-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi

QULUPNAY

(Hikoya)

– Maftuna, senga nima bo'ldi? – so'radi Munisa singlisining qattiq ingragan ovozidan uyg'onib ketib.

– Qornim, qornim qattiq og'riyapti, – dedi Maftuna ingrab.

– Uff, shu yetmay turuvdi, biroz chidagin, o'tib ketadi, – tinchlantirgan bo'ldi opasi.

– Yo'q, o'tmayapti, qaytanga battarroq zo'rayyapti, – yig'lab yubordi Maftuna.

Uning tovushini eshitib, qo'shni xonadan onasi yugurib chiqdi.

– Nima bo'ldi, asalim, qayering og'riyapti? – so'radi qizini qattiq bag'riga bosib. – Shirinimning qorni og'rib qolibdi-ku, dori qutini ol-chi...

– Maftunangizni juda erkalatib yuborgansiz, nima desa olib berib, aksa ursa, dori ichirib. Yana o'yin qilyapti buningiz, – deya norozi ohangda to'ng'illagancha o'rnidan turdi Munisa va dori qutini olib keldi. Dori bor ekan-u, biroz muddati o'tib qolibdi-da...

Maftunaning esa borgan sari yig'isi kuchayib borardi. Bu holdan xavotirlangan dadasi darhol «Tez yordam»ga qo'ng'iroq qildi. Oradan besh daqiqa o'tar-o'tmas shifokor ham yetib keldi.

– Xo'sh, ona qizim, nima yeganding? – so'radi Maftunadan.

– Shifokor opa, qulog'ingizga ayta qolay, – dedi Maftuna ovozini pasaytirib va allanimalar deya shivirladi.

Voqea aslida bunday bo'lgandi:

Bugun Maftunaning bog'chaga hecham borgisi kelmadi. Yalinib-yolvorib uyda qolishga onasini ko'ndirdi. Ota-onasi xizmatga, aka-opalari maktabga otlanishdi. Darvozani Maftunaning ustidan qulflab ketishdi. Unga esa aynan shunday vaziyat kerak edi. Chopqillab qulupnay ekilgan egatlarning biriga tushib oldi-da, shosha-pisha endigina qizara boshlagan qulupnaylardan yeya boshladi.

– Oh, oh, oh, bunchayam shirinsizlar! Unisi shirinroq, bunisi eng kattasi, bunisi hali pishmabdi...

Keyin esa qorni to'ydi chog'i, qo'llarini yuvish uchun ariq labiga bordi.

– Voy-bo', manavi suvning tiniqligini qaranglar-a, – deya bir-ikki hovuch suvdan ichib oldi.

Maftuna o'zicha shivirlab shifokor opaning qulog'iga aytib bergan bu voqeani hamma eshitdi.

– Shifokor opasi, bu quloqsiz qizga eng katta igna bilan ukol qilib qo'ying, – dedi jahllanib onasi.

Dorilarni ichib, qornidagi og'riq yo'qolgan Maftuna shifokorga yalingannamo nigoh tashladi.

–Ukol qilishga hojat qolmadi, – tinchlantirdi uni shifokor, – Maftuna tuzalib qoldi. Muhimi, u qilgan xatosini tushundi, shundaymi, qizim?

Shifokor shunday deya cho'ntagidan qog'oz olib uzatdi. Unda rangli suratlar orqali Maftunaning qilgan ishi noto'g'ri ekanligi, mevalarni albatta yuvib yeyish kerakligi, qaynatilmagan suv ichish mumkin emasligi aks ettirilgandi.

– Bu rasmlar senga, uni o'rtoqlaringga ham ko'rsatgin,–deya xayrlashdi shifokor ayol.

Avvallari oq xalatli insonlardan qo'rqadigan Maftuna endi ularga havas qiladigan bo'lib qoldi.

Katta bo'lsa, o'ziga o'xshagan «quloqsiz» bolalarni shirin so'z bilan davolashni niyat qildi.

Mo'tabar OBIDJONOVA,
Toshkent viloyati, Pskent tumanidagi
7-iqtidorli bolalar litseyi o'quvchisi

Aziz o'quvchilar, mas'uliyatli sinov kunlariga ham oz qoldi. Darslar, qo'shimcha mashg'ulotlaringiz ko'paygandan-ko'paygan. Ayni damlarda ham tahririyatimizga maktub yo'llashga, hikoyalar, xandalar yozishga, hatto tarjimalar ham qilishga fursat topayotganingizdan mamnunmiz.

Shifobaxsh o'simliklar

Ona tabiat qo'ynida yashar ekanmiz, uning ehsonlaridan doimo bahramand bo'lamiz. Tabiat bizni yedirib-ichiribgina qolmay, betob bo'lib qolsak, dardimizga darmon ham bo'ladi.

Respublikamiz iqlimi va sharoiti ko'plab dorivor o'simliklarning o'sishi uchun nihoyatda qulaydir. Tabiiy sharoitda o'lkamizda o'sadigan o'simliklarning to'rt mingdan ortiq turlari mavjud. Ulardan yetti yuzdan ziyodi dorivor o'simliklar hisoblanadi

JAG'-JAG'

Shulardan biri karam-jag'dir. Xalqimizda bu «cho'pon xaltasi», deb yillik begona o'tning olti yurtimizda uchraydi. santimetr. bir nechta ham tojbarglari oq, bir mingtagacha urug' bahorda una kuzgacha doshlar oilasiga mansub jag'-o'simlik achambiti yoki ham ataladi. Bu bir turi ma'lum bo'lib, birgina turi Bo'yi 10-50 Poyasi bitta, ba'zan bo'ladi. Gullari mayda, o'simlik 70 beradi. O'simlik erta boshlaydi va kech rivojlanishda davom etadi.

Bu dorivor o'simlik respublikamizda keng tarqalgan bo'lib, yo'l yoqalari, dalalar, ekinzorlar, turar joylar atrofida ko'p uchraydi. Mevalari iyun oyidan boshlab yetila boshlaydi. Serurug' mevasining shakli teskari-tuxumsimon, uchburchak shaklida bo'ladi. Shuning uchun uni «cho'pon xaltasi» ham deb atashadi. Uning tarkibida askorbin kislotasi, S va K darmondorisi, uzum, olma, limon kislotalari, mikroelimentlar va boshqa moddalar bor. Urug'i tarkibida 20 foiz yog' mavjud.

Uning erta bahordagi to'p barglaridan Navro'z bayrami dasturxoniga ko'k somsa, chuchvaralar tayyorlanadi. Xalq tabobatida jag'-jag' o'tidan shamollash kasalliklarida, me'da-ichakdan qon ketganda, qonni to'xtatuvchi vosita sifatida foydalaniladi.

Xullas, jag'-jag' shifobaxsh o'simlik bo'lib, undan faqat o'z o'rnida foydalanish tavsiya etiladi.

Nigora JO'RAYEVA

SARIQ ILON

Vitaliy ANTOSHKIN

Qo'ynimdagi narsani divanga qo'yib yuborganimda, uyda qiy-chuv ko'tarildi. Onam bu jirkanch narsani uydan chiqarib tashlashimni qat'iy talab qildilar. Biroq, otam bu jonivorning yuvvosh va beozorligini, vahimaga o'rin yo'qligini ta'kidlab, hammani tinchlantirdilar. So'ngra:

– Mayli, yangi mehmon «Jonli burchagi»mizda qolsin, – dedilar.

Sariq ilon qutiga joylashtirildi. Sarg'ish rangli bu ilonning uzunligi bir metrdan ortiqroq edi. Dastlabki ikki kun ichida u ovqat yemadi. Tutib keltirgan chigirtkalarimizga qayrilib ham qaramadi. Dadam xavotirga o'rin yo'qligini, uyimizdagi sharoitga moslashishi uchun ikki-uch kun vaqt kerakligini aytganlaridan keyingina ko'nglim joyiga tushdi. Uchinchi kuni uni qo'limda tutib, suvarakni og'ziga yaqin olib bordim. Suvarak bir zumdayoq g'oyib bo'ldi. Men uni kuniga 5-6 dona chigirtka bilan boqa boshladim.

Bir kuni unga kichkinagina xom go'sht bo'lagini berib ko'rdim. Hidlab ko'rib, uni ham yutib yubordi. Yutayotganda xuddi lazzatli taom yeyayotgandek, huzur qilib, ko'zlarini yumib oldi. Sayrga olib chiqqanimda tap-taqir yerda o'zini juda noqulay his qilar, maysazorga o'tishi bilan dag'al tanasi katta tezlikda sirg'ala ketardi. Tez orada qutisidan chiqishni ham o'rganib oldi.

U juda yaxshi eshitardi. Eshik taqillasa, boshini ko'tarib, ovoz kelgan tomonga quloq tutardi. Uni ovqatlantirayotganimda: «Sariqvoy, Sariqvoy» deya erkalatib qo'yardim. Bir necha kundan keyin «Sariqvoy» desam, u boshini ko'taradigan bo'lib qoldi.

Odatda uni doimo men ovqatlantirardim. Bir kuni akam qo'liga bir parcha go'shtni olib, Sariqvoyni «mehmon» qilmoqchi bo'ldi. Ammo ilon ziyofatdan bosh tortdi. Go'shtni akamdan olib, barmog'imning uchida ilonga uzatdim. U luqmani darhol yutib yubordi.

Keyinchalik u maktabimiz «Jonli burchagi»ning a'zosiga aylandi.

Ataullo Behzod Nusratullo o'g'li tarjimasi

XANDALAR

Geografiya darsida o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotib:

–Bolalar, bugun Afrikaga sayohat qilamiz,–dedi.

–Ustoz, bir daqiqaga ruxsat bering, uyga telefon qilib, Afrikaga borishimizni oyimga aytib qo'yay, aks holda, xavotir oladilar-da,–dedi oxirgi partada o'tiradigan Rustam.

– Qani, o'g'lim, menga xaritadan Kuril orollarini ko'rsat-chi, – dedi ota o'g'liga.

– Dada, bu deyman, orolni suv bosganga o'xshaydi, ko'rinmayapti...

Qo'shni ayollar suhbatlashib turib, biri ikkinchisidan so'radi:

–O'g'lingizning o'qishlari qalay?

–Voy, nimasini aytasiz, o'qituvchisi undan juda xursand. «Yana bir yil shu sinfda qayta o'qiysan», deyayotganmish.

42-XALQARO MENDELEYEV OLIMPIADASI KUNDALIGI

1. **25-aprel.** Xalq ta'limi vazirligida ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan matbuot anjumani o'tkazildi.

Muloqotni Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari R.Ahliddinov boshqarib bordi.

* * *

2. 42-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasining «Yoshlar zamoni» madhiyasi muallifi Anvar Obidjon, musiqasini bastakor Anvar Nazarov bastaladi.

* * *

3. Barcha ishtirokchilarga 42-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasining ramzi tushirilgan futbolka, kepka, sumka, bloknot, ruchka, xarita va boshqa kerakli texnik vositalar hamda O'zbekiston tarixi va taraqqiyoti aks ettirilgan rangli kitob va «Kelajakka sarmoya» kitobining elektron nusxasi taqdim etildi.

* * *

4. Poytaxtimiz aeroporti va ko'chalarida olimpiadani targ'ib etuvchi maxsus axborot-reklama plakatlari o'rnatildi.

* * *

5. «Elxolding» ilmiy ishlab-chiqarish korxonasi homiyligida Moskva davlat universitetining Toshkentdagi filiali sport zali 105-o'quvchiga mo'ljallangan jihozlar bilan to'ldirildi.

* * *

6. **28-aprel.** Ishtirokchilar «Mustaqillik maydoni»ni ziyorat qilib, so'ng «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotida mehmon bo'lishdi.

* * *

7. **29-aprel.** Azim poytaxt Toshkentimizda 42-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasi ochildi. Shuningdek, «Sheraton» mehmonxonasida Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda «Maktab kimyo ta'limining dolzarb muammolari» mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

* * *

8. **30-aprel.** Olimpiada qizg'in tus oldi. Moskva davlat universitetining Toshkentdagi filialida nazariy turning 1-bosqichi bo'lib o'tdi.

* * *

9. **1-may.** Nazariy turning 2-bosqichi yakunlandi.

* * *

10. **2-may.** Olimpiadachilar ko'hna Samarqand shahriga jo'nab ketishdi.

* * *

11. **3-may.** Olimpiadaning amaliy turi barcha sharoitlarga ega, to'liq jihozlangan laboratoriyalarda o'tkazildi.

* * *

12. **4-may.** Olimpiadaning tantanali yopilish marosimida g'oliblar e'lon qilindi.

KIMLAR ISHTIROK ETISHDI?

O'zbekiston, Rossiya, Ukraina, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Belarus, Ozarbayjon, Armaniston, Bolgariya, Latviya, Moldova, Ruminiya, Estoniya davlatlarining vakillari ishtirok etishdi.

MO'JIZANING O'ZGINASI

yoki yosh kimyogarlar anjumani haqida

14–15 yoshda yurt sharafini himoya qilib, dunyoga bor bilimingizni namoyon eta olarmidingiz? Axir yurtning shunday farzandi bo'lishni kim orzu qilmaydi. Yosh sportchi yoki san'atkor bo'lib tanilish ham o'ziga yarasha mashaqqat, iste'dod talab qilar, ammo ilmda o'zini ko'rsata olish, yana oddiy emas, kimyodek sehrli fanni suvdek bilib, bellashuvga bel bog'lash jasurlik, haqiqiy yurtga munosiblikdir. Siz kimyo fanini zo'r bilaman, deya olasizmi? Axir bu fanning qiyin masalalari-yu murakkab reaksiyalarini har qanday o'quvchi ham a'loga bajara olmaydi. Lekin, bu mo'jizaviy ilm sirlarini shu qadar chuqur biladigan tengdoshlaringiz borki, o'z bilimlari bilan yurtlarini dunyoga tanitmoqdalar. Ular 42-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasi ishtirokchilari! Yangi zamonning yosh kimyogarlari, ertangi g'alabadan so'ng esa yurt faxridirlar! Go'zal Toshkentimizda bo'lib o'tgan olimpiadaga 15 dan ortiq davlatlarning iqtidorli yoshlari tashrif buyurishganidan xabaringiz bor. Keling, bugun ularning ajoyib safarlariga sherik bo'lamiz, bilimdonlik gashtini dildan tuyamiz...

Sayohat yurtimizdagi Mustaqillik maydonidan boshlandi. Ishtirokchilar o'zbekistonlik yoshlar bilan do'stlashish maqsadida esa «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotiga tashrif buyurishdi.



OLIMPIADADA O'TGAN TUG'ILGAN KUN

«Kamolot»ni yoshlarga qanot, deyishadi. Bu gapni ajoyib uchrashuvning guvohi bo'lgan olimpiada ishtirokchilari ham tasdiqlashdi. Bu yerda ular uchun «Yoshlar hamdo'stligi» alyansi o'tkazildi. Unda tashkilotning amalga oshirayotgan ishlari haqida so'z yuritildi va tengdoshlaringiz o'z mamlakatlaridagi yoshlar tashkilotlari bilan «Kamolot» faoliyatini taqqoslash imkoniga ega bo'ldilar. Shu o'rinda biz turkmanistonlik ishtirokchi Nurjahon Ortiqovaning bu boradagi fikrlari bilan qiziqdik:

— Hozir men qanchalik hayratda ekanimni bilasizmi? O'zbek yoshlarining faol, jo'shqinliklarini ko'rib havasim keldi.

Belorussiyalik ishtirokchi Valeriya Kasnerikning aytishicha, shuncha ishlarga qaramay, uning tug'ilgan kunini ham unutishmabdi. Va u yana bir bora xalqimizning samimiyati, mehmondo'stligiga tan beribdi.

1-BOSQICHDA 8 MASALA

Shunday ko'tarinki ruhda nazariy tur ham boshlanib, o'quvchilar kimyo fanining 5 ta yo'nalishidagi masalalarni yechishga sho'ng'ib ketishdi. Yuraklarida qancha hayajon-u o'tkir nigohlarida qanchalar sinchkovlik bilan ishga kirishishgan ular. Axir shu sakkiz masala ertaga o'zlariga, yurtlariga shon-sharaf, yutuq olib kelishi mumkin. Ishlar topshirilgach, bolgariyalik tengdoshingiz Kirill Stoyanov bilan suhbatlashdik:

– Bu olimpiada biz yoshlarning o'z iste'dodimizni yuzaga chiqarishimiz uchun qulay imkoniyat. Shuning uchun masalalarni e'tibor bilan yechdim. Barchamiz juda hayajonlandik. Axir birimiz-birimizdan kuchlimiz. Menga so'z berganingizda aytib olay, mohirona uslubda ta'mirlangan va nozik did bilan bezatilgan obidalarni ko'rib, Toshkent ko'chalarida sayr qilib yurtingizga ixlosim ortdi.



«ELXOLDING»DA TAYYORLANDI

«Elxolding» deganingiz nima, deysizmi? Amaliy bosqich uchun tayyorlangan laboratoriya uskuna va jihozlari ana shu ilmiy-ishlab chiqarish korxonasida tayyorlangan-da. Bu bosqichda bilimdonlar kimyoviy reaksiyalar, amaliy mashg'ulotlardagi bilimlarini namoyish etishdi. Mo'jizalar ham shu kuni yaratilgan bo'lsa, ne ajab!

«DOIRA CHALGIM KELDI»

Olimpiadaning tantanali ochilish marosimidagi o'zbek bolalarining ajoyib chiqishlarini tomosha qilib mehmonlar shunday istak bildirishganiga ishonasizmi? Ha, ular doira chalayotgan bolalarga juda havas qilishdi. Bu olimpiada ochiq deb, e'lon qilingach o'zbek yoshlari tomonidan kuylangan qo'shiqlar-u ajoyib milliy raqslarimiz barchani rom etganidan dalolat beradi. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti akademigi, tashkiliy qo'mita raisi V.V.Lunin aytganidek, bu tayyorgarliklar mo'jizaning o'zginasi edi-da. Ayniqsa, marosim so'nggida kuylangan olimpiadaning «Yoshlar zamoni» madhiyasi qatnashchilarga ertangi kun – nazariy sinovlar uchun jo'shqinlik, shijoat bag'ishladi.

«Barcha yoshlar birlashib,
Kimyogarlar bellashib,
Yashnatgaymiz dunyoni,
Gullatgaymiz dunyoni».

OLIMPIADACHILAR KO'HNA SAMARQANDDA



Nazariy turda yaxshigina ter to'kkan ishtirokchilar uchun Samarqandga sayohat ayni muddao bo'ldi. Axir ular uchun bu ko'hna zamin mo'jiza, qolaversa, ular Vatanimizni shu go'zal shahar orqali tanishgan bo'lsa, ajabmas. Registonni tomosha qilib bu tengdoshlaringizning ko'ngillaridan nimalar kechganini bilish qiyin emas. Masalan, belorusiyalik ishtirokchi Andrey Konokov hali hech qayerda bunday obidalarning guvohi bo'lmaganini ta'kidladi. Uni hayratga solgan yana bir voqea yurtimizda bu yilning «Yoshlar yili» deb e'lon qilinishi bo'libdi.

BILIMDONLAR BAYRAMI

Kecha tantanali ravishda o'tkazilgan olimpiadaning yopilish marosimi chinakam yoshlar bayramiga aylanib ketdi. Zero, unda bilimdonlar sinovdan o'tib yuzaga chiqishadi. Hamyurtimiz, olimpiada ishtirokchisi Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 2-IIBMI 11-sinf o'quvchisi Azizbek Haydarov bilan qilgan suhbatimizda o'ziga ishongan holda shunday degan edi:

– Bu olimpiadada men ishtirok etaman degan edim, ustozimgd. Zero, inson hamisha o'z kuchiga ishonib yashashi va bunga umri davomida poydevor yaratib borishi kerak. Olimpiadada o'zbekistonlik biz yoshlar ham yaxshi natijalarga erishamiz, degan umiddaman.

Shunday qilib, bellashuvda kim zo'r chiqdi? Medallar-chi, kimga nasib etdi? Bu haqida kelgusi sonda o'qiysiz. Demak, olimpiada yakunlangan bo'lsa-da, uning shukuhi hali uzoq davom etadi. O'zbekiston haqidagi iliq taassurotlar dunyoga tarqaladi. Bu galgi olimpiadaning zehnli kimyogarlaridan esa kelajakda yangi olimlar chiqishiga umid qilamiz. Zero, bu zamon yangi zamondir, yoshlar zamoni!

Sayyora JO'RAYEVA,
«Tong yulduzi» muxbiri

Mitti darcha

400 million o'quvchi

Xitoy hukumati maktab dasturiga Olimpiya harakatlari fanini kiritdi. Endilikda bu fanni 500 ming nafar maktablarda 400 million o'quvchi o'rganadi. Yangi ta'lim 2008-yilning 8–24-avgust kunlari Pekinda bo'lib o'tadigan yozgi olimpiadadan oldin yo'lga qo'yildi.

Yapon bolalarining har biri o'z ismining ma'nosi va kelib chiqish tarixini bilishar ekan. Ularning ota-onalari o'z farzandlariga chiroyli yoziladigan iyeroglifdardan ism tanlashadi. Yapon qonun himoyachilari bolaga istalgan ismni qo'yishga ruxsat beradilar. Faqatgina 2000 iyeroglifdan 10 tasidan («jasad» so'zidan) foydalanish ta'qiqlanadi.

SIZ-CHI?



Nemis bolalari 8 yoshgacha dastur bo'yicha til o'rganishadi. Buning uchun bog'cha tarbiyalanuvchilari uchun alohida darslar tashkil qilingan. Mashg'ulotlar bog'cha yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bola darslarni oson o'zlashtiradi. Yaxshi o'zlashtira olmaganlarga qo'shimcha mashg'ulotlar o'tiladi. Ciz-chi? Nechta tilni bilasiz?

BAHOR MENGA O'XSHAYDI

Men bahorni juda yaxshi ko'raman. U chinakamiga ajoyib fasl: bayramlari, go'zal kunlari ko'p. Nazarimda, barcha qizlar bu fasllar kelinchagini intiqlik bilan kutib, so'ng hech ham xayrlashgilari kelmasa kerak. Bolaligimda bir qo'shiqni ko'p aytar edim:

Bahor menga o'xshaydi,
U men bilan yashaydi.
Qani endi yil bo'yi
U ketmasdan tursaydi edi.

Bahor oxirlab borayotgan shu damda yana uni madh etgim keladi. Ayniqsa, Navro'z bayramida bolalar-u biz yoshlar mazza qilamizda! Bu yil ham shunday bo'ldi. Biz dugonalarim bilan o'sma qo'yishni ham unutmadik. Navro'z sayllari o'tkazdik. Ustozimizdan bu bayram haqida ko'p ma'lumotlar oldik. Bilasizmi, an'anaviy bu bayramimizni yo'q qilishga harakatlar ham bo'lgan ekan. Lekin, 1989-yilda u qayta tiklanib, keng nishonlanib kelmoqda. Demak, biz chindan-da mustaqil yurtning hur yoshlarimiz. Sumalaklar doshqozonda qaynaganida «Bitta kavlay, buvijon», – deya yaxshi tilaklar aytib, yurtimizga, o'zimizga baxt-iqbol tilaydigan yoshlarmiz. Milliy taomlarimiz – sumalak, halim, ko'k somsa-yu chuchvaralarning tayyorlanishini ham shu bayram arafasida buvijonlarimiz-u onalarimizdan o'rganib oldik. Bu yilgi bahor menda ana shunday ajoyib taassurotlar qoldirdi.

Dilafro'z RAHMONQULOVA,
Toshkent yuridik kolleji talabasi

BOLALIKNING SARGUZASHTLARI

Odatda yozuvchi ya shoirlar bilan suhbat qurganda ijodkorning yangi qirralarini kashf etgandek bo'lamiz. Sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning suhbatlarini gazeta sahifalarida ko'p bora o'qiganmiz. O'qigan sari yozuvchi qalbining tub-tubida yashiringan bolalikning yangicha sarguzashtlarini eshitib zavqlanamiz. Samarqandlik ijokdor qizimiz Hilola Qurbonovaning O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev bilan bo'lgan suhbati o'quvchilarni befarq qoldirmaydi.

– Yozuvchilik sohasiga kirib kelishingizda, bolalikdagi orzularingizni qanchalik ta'siri bor, deb o'ylaysiz?

– Bolaligimda hamma bolalar kabi orzularim bir dunyo bo'lgan, men har doim o'qituvchi bo'lishni orzu qilganman. Chunki qishlog'imizda eng obro'li kishilar o'qituvchilar edi. Qobulov degan domla bo'lar edi, ko'chamizdan har kuni velosipedda o'tardi. Velosipedini orqasidan ushlab maktabgacha yugurib yurardik. Maktabga ishtiyoqim baland bo'lganligi uchun darslarni qoldirmasdim. Uyimizda enamdan ko'p ertaklar eshitib, tengqurlarimga eshitganlarimni aytishga qiziqardim. Shu jihatlarim o'qituvchilik kasbini egallashga undagan bo'lishi ham mumkin.

Bolalikda she'riyatga ham qiziqishim bor edi. Uyimizda otin buvimlar «Nuri», «Obomuslim»larni o'qirdi. O'qituvchilik kasbiga qiziqishim tufayli, Qo'qon pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirdim.

– Hozirgi kunda bolalar tomonidan sevib o'qilayotgan «Besh bolali yigitcha» kitobingizni yozishga nima turtki bo'lgan, kitobning yaratilishi haqida gapirib bersangiz?

– Men o'smirlik davrimda bolalar uyida bo'lganman. Barcha bolalar bir-birimizga yupanch bo'lib, ahil yashardik. Keyin hammamiz ulg'aydik. Oradan ancha yillar o'tdi. 1975-yili Bolalar uyida bo'lganlar uchrashdik. Ko'rishsak, birimiz tuman rahbari, birimiz maktab direktori, birimiz o'qituvchi, birimiz rais bo'libmiz. O'rinboyev Asqar Mahsumov domla Bolalar uyi direktori edi. Ochlikdan saqlab qolgan yaxshi odamlar ham bor edi. O'zligidan, salomatligidan kechib, o'qitgan muallimlar bo'lardi. Ota-onasini yo'qligini bildirmagan mehribon akalar bor edi. Qahatchilik yili odamlar 2 xil toifada: birinchisi – insofli, topganini oz-ozdan bo'lsa ham birovga beradigan odamlar, ikkinchisi – insofsiz, topganini birovga bermasdan o'zi yeydigan, ochko'z odamlar edi. O'sha odamlar haqida kimdir yozishi kerak edi. «Gazetada ishlaysan, sen yozgin, yaxshi bir misol aytaman», – dedi bolalar uyi direktori.

Shu bolalar uyida ham otasi, ham onasi bo'lib, besh ukasini olib kelgan bir bola bor edi. Ukalarining oralari bir, bir yarim yoshdan farq qilardi. Shu bola besh ukasini xuddi onasiga o'xshab, kechasi yonida olib yotardi. Kiyimlarini o'zi yuvib berardi. Ovqatlantirar, o'zi yemasdan ukalarini qornini to'ydirardi. Keyin ukalarini o'qitdi, ikki singlisini turmushga uzatdi. Hammasini oliy ma'lumotli qildi, lekin o'zi o'qiyolmay qoldi, traktorchi edi.

Yana bir turtki shundaki, o'sha yillari bolalar uyida Mariya Pavlovna Shateskaya degan ayol bor edi. Bolalar uni Mariya polvon deb chaqirishardi. Ancha yillar oila qurmadi. Keyinchalik bolalar uyidan bir bolani asrab olib tarbiyaladi. Shu haqida ham kitobimga kiritganman.

– Bugungi kun bolalari haqida fikringiz?

– Hozir zamon o'zgardi, talab o'zgardi. Yaxshi o'qish uchun yaxshi sharoitlar paydo bo'ldi. O'qiladigan yaxshi-yaxshi kitoblar chiqdi. Kompyuterlar paydo bo'ldi. Bundan 60 yil oldingi bolalar bilan hozirgi yoshlarni solishtirsak, yer bilan osmoncha farq qiladi. O'sha yillardagi bolalar bir qishloq doirasida fikrlay olgan. Ko'rgani qishloq maktabi mahalla hovlisi bo'lgan. Hozirgi yoshlar dunyo miqyosida fikrlaydi. O'sha yillari bolalar qo'shni qishloqda nima bo'lganini bilishmasdi. Bir oy o'tgach, eshitardi. Hozirgi bolalar Amerikada bo'lgan voqeani 15 daqiqadan keyin bilib olishyapti. Demak, hozirgi yoshlar yetuk, intiluvchan yoshlardir.

So'zim yakunida men barcha O'zbekistondagi bolalarga sihat-salomatlik tilab, ular ichidan bizdan-da bilimli, qalami o'tkir yozuvchilar, adabiyotga ixlosmand yoshlar chiqishiga umid qilib qolaman.

«QIZILISHTON – SHIFOKOR»

Kasal bo'lsa daraxtlar
Men bog'larga chopaman.
Tuzatmoqni qilib ahd,
Unga davo topaman.

Men-chi, barcha daraxtlar,
Ahvolidan xabardor.
Shuning uchun deydilar,
«Qizilishton – shifokor».

IKKITA BESH QOVUNCHA

Olim chiqib doskaga,
O'zin qo'ydi yo'qotib.
Beshga beshni qo'sholmay,
Qoldi taxtadek qotib.

Birlashtirib qo'llarin,
Karim qildi tuguncha.
Olim-chi, dedi shoshib:
– Ikkita besh qovuncha.

G'ayrat MAJID

TUSH

O'rningdan turgin o'g'lim,
Ho'l bo'pti-ku ishtoning.
– Tushimda suvga tushdim,
Oyijonim, ishoning.

NE SABAB?

Qolib ketdi bir kuni qishda,
Suvga to'la misqumg'on tushda.
Bilgich bo'lsang qani aytaqol,
Nima sodir bo'ldi idishda?

Ernazar RO'ZIMATOV

JO'JA

Tuxum bosib yotardi.
Bir tovug'im miloyim
Qachon jo'ja chiqar deb,
Xabar olardim doyim.
Ertasi tuxumlarni,
Yorib chiqdi jo'jalar.
Hali yurib-yurmasdan,
Onasiga chip-chiplar.
Jo'jalarim ranglari
Sariq, xilma-xil, ola.

Birlari oppoq bo'lsa,
Boshqalari qop-qora.
Jajji, ham yumshoq ekan
Jo'jalarimning bari.
Yelpig'ichga o'hshaydi
Ipakdek qanotlari.

Qobiljon SHERMATOV,
Farg'ona viloyati, Yozyovon tumanidagi 22-maktabning 4-sinf o'quvchisi

BURCHAKDAGI BOLA

Men sizga bayon qilmoqchi bo'lgan hikoyam barcha o'quvchilarga dars bo'ladi, degan umiddaman.

Bizning sinfimizda ko'p qiziqarli, gohida achinarli voqealar bo'lib turadi. Sinfda Anvar ismli shumtaka, yalqov bola bor edi. Anvar o'tgan o'quv yiligacha burni osmonda, hech kimni pisand qilmasdi. Shuning uchun o'qishni ham o'yinchoq deb bilardi. May oyi oxirlab, jazirama yoz o'z otini jilovlay deb turgan kunlarining birida bizning sinfda bir tasodif ro'y berdi.

Anvar mas'uliyatsizlik qilib ingliz tilidan uy vazifasini tayyorlab kelmaganligini aytdi. Bu gaplarni tishini tishiga qo'yib eshitib turgan Xolida opa g'azab otiga mingan holda Anvarning choragi va yilligiga «2» baho qo'ydilar. Chunki bu hol ko'p marotaba takrorlangan edi.

Anvar shundan keyin ham to'g'ri xulosa chiqarmadi. Bu voqeadan so'ng hamma Anvardan yuz o'girdi. O'quvchilar Anvarni ko'rganida yomon ko'z bilan qarashar, barchaning qalbida Anvarga qarshi nafrat uyg'ondi. Anvar atrofdagilarga parvo ham qilmasdi, go'yoki uning ko'zi ko'r-u, qulog'i kar edi.

Bugun o'qishning oxirgi kuni sinfdoshlar, ustozlar bir-birlari bilan xayrlashib yozgi ta'tilga ham chiqishmoqda.

Anvar doimgidek ota-onasining baqir-chaqiriga qaramay ertalabdan ko'chaga chiqib ketar, bezori bolalar bilan yurar, uyga esa kech qaytardi.

Kunlar ketidan oylar o'tdi. Mana yozgi ta'til ham tugab, yangi o'quv yili boshlandi.

Har doimgidek Anvar hammadan ajralib bir burchakda yolg'iz turibdi. Buni ko'rgan sinfdoshlari ajablanishmadi. Chunki u doim shunday edi. Bir kuni sinfdoshlar birlashib Anvarni o'z davralariga qo'shishga, yaxshi gapirishga, uni a'lo o'qiydigan, yaxshi bolaga aylanishiga rosa urinishdi. Boshida esa Anvar ko'nmadi. «Buni ataylabdan, meni hammani oldida sharmanda qilish uchun qilishyapti», deb o'yladi. Keyin esa u o'rtoqlarini tushunishga, ular bilan yaqinroq bo'lishga harakat qildi. Yaqinlari Anvardagi o'zgarishni ko'rib xursand bo'lishdi. Ota-onasining ham gapiga ko'nadigan, ularni jahlini chiqarmaslikka harakat qiladigan bo'ldi. Asta-sekin o'qishi ham yaxshilandi. U maktabdagi faol o'quvchilarning biriga aylandi.

Aziz o'quvchilar! Demak, qissadan hissa shuki, Anvar yaxshi, a'lochi, intizomli bola bo'lishga harakat qilmaganida va do'stlarining maslahatlariga quloq solmaganida edi, avvalgidek qoloqligicha qolib ketardi. Shuning uchun ham xalqimiz «Harakatda – barakat» deb bejiz aytmaydi.

Muborak KARIMOVA,
A.Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyining 9-sinf o'quvchisi

STADIONDAGI OTAXON

Omonullo ota bilan tanishganimiz qiziq bo'ldi. O'g'lim Sardorni mamlakatimiz bosh jamoasi hisoblangan Markaziy «Paxtakor»ning bolalar futbol akademiyasiga navbatdagi mashg'ulotlariga olib borib, o'yinini diqqat bilan kuzatib o'tirardim. Sardor jamoasining ikkinchi darvozaboni. To'p u tomon yaqinlashgani sari go'yo men o'zimni tikon ustida o'tirgandek his qilardim...

Bir payt orqa tarafdan birovning o'g'limga qarab: «O'ngroqqa o't, pastdan keladigan to'pga e'tiborli bo'l», degan ovozi eshitildi. Ovoz kelgan tomonga yalt etib qaradim. Yoshi yetmishlar atrofidagi nuroniy kishiga negadir mehrim tovlanib ketdi.

Chindan ham raqib tomonning ikki marta xavfli hujumi aynan o'sha tomondan bo'ldi. Haligi odam aytganidek, o'g'lim xatarlarni osonlik bilan qaytarishga ulgurdi. Yana ketma-ket raqib hujumini oldini olish niyatida: – Sen oldinga chiqib ketyapsan, sal orqaroqqa suril, – deya jon kuydirdi. Albatta bu e'tibordan keyin otaxon tomon yura boshladim.

– Kimning bobosisiz?

Otaxon dabdurustdan bergan savolimga hayron bo'lib qaradilar.

– Bu yerda nabiralarim yo'q. Narigi darvozada turgan Abdulla shogirdimning o'g'li. Abdullaning dadasi Oloviddinni aytayapman-da. Oloviddin bolaligidan futbolchi bo'lishni niyat qilardi. Ammo uning otasi bu shashtidan qaytargan. Bir kuni mahalla bolalari futbol o'ynayotgan mahalda jahl bilan maydondan o'g'lining qo'lidan ushlab olib chiqib ketgan. Ko'zidan shashqator yosh bilan chiqib ketgan Oloviddinning siymosi hanuz ko'z oldimda. Hozir u mahallamiz tadbirkori. Futbolchi bo'lish niyati esa orzuligicha qolib ketdi. Endi o'g'li Abdullaning futbolchi bo'lishi uchun astoydil harakat qilyapti. Otasining aksini qilib, bolasini futbol olamiga qiziqtiryapti. Hozir Abdulla futbol maktabida saboq olayapti. Har yakshanba biz bo'lajak futbolchi Abdullaning o'yinlarini kuzatish uchun kelamiz.

Mahallada o'zimizning futbol jamoamiz bor. Unga o'g'lim Otabek murabbiylik qiladi. Oloviddin esa jamoamizni zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlab turadi. Shuning uchun ham u bosh homiymizdir.

Bolaligidan sportga, ayniqsa, futbolga mehri baland bo'lgan Omonullo ham futbolchi bo'lishni juda orzu qilardi. Ammo uning orzusi amalga oshmadi. Biroq, o'z hayotini sportsiz tasavvur qilolmasdi. Shuning uchun o'z orzusini bolalari, nabiralarida ko'rishini istaydi.

Shuning uchun murabbiy sifatida yuzlab minglab o'g'il-qizlarning sportga mehr qo'yishida o'z hissasini qo'shdi. Bir necha yillar Toshkent viloyati, Toshkent tumanida sport yo'riqchisi vazifasida ishladi. Hozir ham mahalla bolalarining beminnat murabbiyi.

Dorulamon kunlar, xususan, bolalar sportiga e'tibor tinib-tinchimas Omonullo akaning bir g'ayratiga o'n g'ayrat qo'shdi. O'zi yashaydigan Guliston mahallasida futbol mashg'ulotlarini yo'lga qo'ydi. Tuman hokimligiga, homiylar yordamiga, fidoyi sportsevar insonlar ko'magiga tayanadi. Mahallaning yosh futbolsevar bolalariga shart-sharoitlar yaratib, ularning musobaqalarda qatnashishi uchun yelib-yugurdi.

Bugun mahalla bolalari ancha ko'zga ko'rinib qolishdi, viloyat chempionatida zafar quchishdi. Respublika birinchiligida katta musobaqalarda ishtirok etishmoqda. Charm to'p jozibasi, muxlislar mehri, yoshlar shijoati Omonullo akaning kuchiga-kuch, shiddatiga-shiddat qo'shdi.

Yaqinda Guliston mahallasida ajoyib futbol musobaqasi tashkil etildi. Zangiota va Toshkent tumanlari mahallalaridan kelgan jamoalar o'rtasidagi musobaqada ertangi Mirjalol, Soliyev-u Nesterovlar o'zaro bellashishdi.

– Bizga xorijdan futbolchi olib kelish shart emas, o'zimizdagi iste'dodlarni yaxshi tarbiyalasak, ularning mahoratini kun sayin oshirsak, o'zbek futbolchilari jahon maydoniga dadil chiqa oladi, – deydi biz bilan suhbatda Omonullo aka mehrga to'lib.

Kuyinchak otaxon bilan suhbat davomida bir narsaga amin bo'ldimki, shunday samimiy insonlar bor ekan, bir kun kelib o'zbek futboli dunyoni zabt etishiga ishonaman. Shu so'zlar xayolimdan o'tarkan, Omonullo akadan futbolga bo'lgan qiziqishingizga xolamiz qanday qaraydilar, deya so'radim.

– Men urush tugashi arafasida tug'ilgan ekanman. Otam bu yog'iga omonlik bo'lsin, deb ismimni shunday qo'ygan ekanlar. Ammo ularning xotirlashicha, chaqaloqligimda juda yig'loqi bo'lgan ekanman, 6 oygacha ota-onam uyqu nimaligini bilishmagan ekan... Vaqti kelib, ulg'aya borgan sari boshimda allaqanday tushunib bo'lmas og'riq seza boshladim. Bu og'riq shu kungacha menga hamroh...

Ammo eng qizig'i, futbol maydoniga borsam bolalar orasida bo'lgan chog'larim bosh og'rig'im o'z-o'zidan yo'qolib qoladi. Shuni bilganim uchunmi, xolangiz ham meni bu ishlarimga ko'pam injiqlik qilavermaydi. Nafaqa pulimdan kampirimga bildirmasdan futbol to'plari, bolalarni rag'batlantirish uchun maxsus sovg'alar olib borishimni bilib qolsa, nimalar bo'lishini tasavvur qilolmasligimni ham aytib qo'yay.

Aziz bolajonlar, otaxon bilan suhbatdan keyin ko'nglimda ajib bir umid uyg'ondi. Balki sizning mahallangizda ham to'p sehri, uning jozibasiga maftun bo'lgan beg'ubor insonlar bordir.

Bilingki, siz uchun g'amxo'rlik qilayotgan bunday insonlar xizmati tufayli hech bo'lmaganda, mahallangizdan bir sport yulduzi, albatta, katta maydonga chiqib keladi.

TO'P QUVLAYOTGAN BOLA

Har bir narsaga mehr bolalikdan boshlanishi rost ekan. Mamlakatimizning yetakchi jamoalaridan biri «Paxtakor» bolalar futbol akademiyasida tahsil olayotgan bolalarning mehri to'pga tushgan. Murabbiyning aytishicha, bu jamoaning bolalari futbolda ancha shakllanib ulgurishibdi.

Bu e'tibor biz ota-onalarni ham quvontirishi tabiiy. Demak, biz ham beparvo bo'lishga haqqimiz yo'q. Bolalarimizning qiziqishi va intilishi bizni endi har tong kunimizni stadiondan boshlashga o'rgatib qo'ydi.

Haftaning uch kuni mashg'ulotlar, har yakshanbasida esa musobaqalar... Albatta, bu paytda ularning yonlarida yelkama-yelka turishimiz darkor. Chiniqtiruvchi mashg'ulotlar, futbol sir-asrorlarini mahorat ila egallash, barcha- barchasini qunt bilan o'rganishlari uchun imkon darajasida vaqt ajratmoqdamiz. Musobaqalarda ularning g'olib bo'lishlari ko'nglimizni tog'dek ko'tarmoqda. Go'yo, bolamiz ertangi Mirjalol bo'lib ulg'ayayotgandek...

Koptogingni be-y menga,
Salom beyaman senga.

Aprel oyidan boshlangan chempionat futbolsevar bolalarni yana bir sinovdan o'tkazmoqda. Shu kungacha kichik «Paxtakor»chilar «Quruvchi», «O'zMU», «Chig'atoy», «Tosh kuch», «Metallurg» kabi jamoalar bilan o'tgan uchrashuvlarda g'oliblikni hech kimga berishmadi. Bunday bellashuvlar yosh futbolchilarni muvaffaqiyat sari yetaklamoqda. Musobaqada o'zini ko'rsatganlar esa murabbiy nazariga tushib bormoqda. Aynan shunday musobaqalarda bo'lajak futbolchilar o'z o'yin uslublari bilan har qaysisi o'zini yulduz futbolchilarimiz Geynrix, Soliyev, Kopadze, Suyunov va Tojiyevlarga o'xshab hujum uyushtirishlaridan g'ururlanib ham qo'yishyapti.

Ota-onalar orasida va federatsiyada eng yaxshi murabbiy nomiga ega Lenur Yeremeyevdan chempionat haqida gapirib berishlarini so'raganimizda:

– Bolalar futboli professional futbolning asosidir, – deya gap boshladi murabbiy. – Biz istaymizmi, yo'qmi, baribir ertangi kun bugundan boshlanadi. Odil Ahmedov, Rinat Bayramovdek, qolaversa, Pele, Marodona-yu Kaka, Raul-u, Ronaldo kabilar aynan bugun to'p ortidan yugurayotgan bolalar orasidan chiqyapti. Shuning uchun ham bolalar futboliga mutaxassis va murabbiylar e'tibori barvaqtroq boshlanadi. Bolani futbolga erta yetaklab kelish, menimcha, muvaffaqiyatga erishish garovi demakdir. Ayniqsa, bolalar futboli o'zining yangi davrini boshladi. Mamlakatimizda «Paxtakor», «Quruvchi», «Neftchi», «Mash'al»dek yetakchi jamoalar qoshida alohida futbol maktablari faoliyat yuritmoqda. Qolgan joylarda ham, jumladan, maktablarda, mahallalarda bolalar futbol jamoalari bor. Ular ham o'zaro musobaqalarda o'z tajribalarini oshirib borishmoqda.

Jamoamiz a'zolari 1998-yilda tug'ilgan bolalardan iborat. Quvonganimiz bugun to'p quvlayotgan bolalar, albatta, mashaqqatlarda toblansa, mashg'ulotlarda chiniqsa, o'zini ko'rsatsa, kelajakda o'z nomiga ega futbolchi bo'lishi shubhasiz. Chempionatdan maqsad ham shu.

Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi

SEGAZAQUM DOVRUG'I

Qishlog'imizni Segazaqum deyishadi. Bu yerning dardga davo shifobaxsh qumliklari necha chaqirimlargacha yastanib yotadi. Ana shu qumning dovrug'i qo'shni respublikalargacha yetib borgan. Segazaqum shamollashning hamma turini, bod kasalligi, befarzandlik, hatto astma kasalligini ham oldini oladi.

Qishlog'imiz ahli dilkash, shirinsuxan, mehnatkash bo'libgina qolmay, juda mehmondo'st ham. Davo izlab kelgan bemorlarga uylaridan joy berishadi, mehmon qilishadi.

Bugungi kunda negadir tengdoshlarimning ko'pi katta shaharlarni, xorij mamlakatlarini havas qilishadi. Men esa o'zimizning qishlog'imizni yaxshi ko'raman. Maktabni tamomlab, muallimlikka o'qimoqchiman. Ustozlarim kabi bolalarni ardoqlab, kasbimni ulug'lab yurishni orzu qilaman.

Mohiniso MUXTOROVA,
Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi 2-maktabning 8- sinf o'quvchisi

BUGUNNING «YANGI AVLOD»LARI

Aziz bolajonlar! «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'oliblari bilan tanishtirishda davom etamiz.

Bugungi mehmonimiz «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'olibi Farg'ona viloyatidan «Tabassum» guruhi. Bu guruh 2006-yili tashkil topgan. 2006-yilda «Yosh raqqosalar» ko'rik-tanlovi g'olibi bo'lgan «Tabassum» guruhi tarkibida 50 dan ortiq san'atga oshufta ishtirokchilar bor. «Tabassum» guruhining tashkil etilganiga ko'p vaqt o'tgan bo'lmasa-da, shu qisqa vaqt ichida ular Farg'ona shahrida o'tkazilayotgan ko'pgina ommaviy tadbirlarda qatnashib kelmoqda.

– «Tabassum» guruhimizda iste'dodli qizlarimiz ko'p, ular bilan faxrlanamiz. Ana shunday qizlarimizdan biri Malika Salayiddinovadir.

Malika Marg'ilon shahrining 2000 yilligi yubiley tadbirida qatnashib, yurtboshimizning nazariga tushgan. Shuningdek, «Tabassum» guruhimiz Konstitutsiyaga bag'ishlab o'tkazilgan ko'rik-tanlovda ham 1-o'rinni egallab, «Yangi avlod» festivalida qatnashish va g'olib bo'lish baxtiga muyassar bo'ldi.

Oldinda rejalarimiz ko'p. Maqsadimiz ildam qadam tashlab, guruhimizni keng ommaga yaqinroq tanishtirishdan iborat, – deydi «Tabassum» guruhining rahbari Sevara opa Tursunova.

Biz esa «Tabassum» guruhidan go'zal raqslar va kuy-qo'shiqlar kutib qolamiz.

Nazokatxon TOJIBOYEVA

O'quvchilik davri har bir yosh qalbida bir umrga muhrlanib qoladi. Ayniqsa, birinchi muallimi. Yunusobod tumanidagi 97-maktabning 4-«B» sinf o'qituvchisi Gulbahor Karimova ham ana shunday sharafga muyassar bo'lgan ustozlardan.

Nurislom olgan suratlar

Shu kunlarda ustozlaridan to'rt yil saboq olgan shogird bolakaylar o'zlarining sevimli muallimidan oq fotiha olib, 5-sinfga o'tadilar. Ustoz-shogirdlarning so'nggi qo'ng'iroq oldidan o'tayotgan har bir kuni unutilmas bo'lib qolmoqda.

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!



F.Oripov tuzdi

BILASIZMI?

Eng yirik markalar to'plami AQSH sobiq prezidenti Franklin Ruzvelt hamda Hindiston davlat arbobi Javoharlal Neruga tegishli bo'lgan ekan.

* * *

Yerning shakli ajdodlarimizni bir necha ming yillar mobaynida o'ylantirib, har xil afsonalar to'qishga majbur qilgan. Uning haqiqiy shakli esa uchinchi ming yillikda paydo bo'ldi. Birinchi geografik globus Nyurenberg shahridagi muzeyda saqlanadi. Yer yuzidagi qit'alar joylashuvi aks ettirilgan mazkur globus 1942-yili geograf M.Bexaym tomonidan yasalgan.

* * *

Matematik belgilar ichidagi «+» (qo'shuv) va «-» (ayiruv) ishorlari birinchi bo'lib 1498-yilda Leypsigda chop etilgan darslikda paydo bo'lgan. U Iogan Vidlean tomonidan ishlab chiqilgan. Bunday belgilar darsliklarda qo'llanishdan oldin faqat so'z bilan, ya'ni «qo'shuv» va «ayiruv» tarzda yozib kelingan.

* * *

Eng katta ilon Janubiy Amerika qit'asida yashaydi. Ulkan anakondaning uzunligi taxminan 14 metr, tana diametri esa 82 santimetrga boradi.

* * *

Eng uzun chuvalchang Avstraliyada yashaydi. Uning uzunligi 3 metr, tanasining qalinligi esa 3 santimetrga tengdir.

* * *

Vampir deb nomlanuvchi sakkizoyoq eng katta ko'zlarga ega. Tanasining uzunligi atigi 28 santimetr bo'lgan mazkur jonivor ko'zining diametri 2,5 santimetrga tengdir.

* * *

Erkak bug'u shoxlarining og'irligi 10 kilogrammgacha yetadi.

* * *

Yer yuzidagi hasharotlarning umumiy og'irligi 2 milliard tonnaga tengdir. Solishtirish uchun misol: hamma odamlarning vazni 200 million tonna tosh bosadi.

* * *

Bir asalari oilasi yoz davomida 150 kilogramm asal tayyorlaydi. Bir kilogramm asal yig'ish uchun esa asalarilar 10 milliontadan ortiq gulga qo'nishadi.

Tong YULDUZI
Yuksak yuksakdir, Yuksak baxtlidir!
O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Elyor ESHCHONOV
Navbatchi:
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 53103
Buyurtma N: J 5187